XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-018-2-38-K/24 Qorovulbozor tumani

Qorovulbozor tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Buxoro viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01/06/20-12-38/2225-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Qorovulbozor tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **75 994,2 mln.so‘m** va xarajatlari esa **75 994,2 mln.so‘m** etib belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Qorovulbozor tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **651 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga muvofiq;**

tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga muvofiq**;

Qorovulbozor tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **911.3 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan

xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Djumayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Davronov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Latipov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (I.Karimov), “Qorovulbozor tongi” gazetasi (B.Soliyev)ga mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Sh.Suvonov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Djumayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyaga raislik qiluvchi B.Aslonov

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-38-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qorovulbozor tumani byudjeti daromadlarining
2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy reja
1	Foyda solig‘i		
2	Aylanmadan olinadigan soliq	5 265 000,0	5 265 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 832 000,0	41 445 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	181 000,0	181 000,0
5	Aksiz solig‘i jami		2 808 000,0
-	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		
-	pivo		
-	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		2 808 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	258 000,0	4 010 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 274 000,0	2 274 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	533 000,0	13 505 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 102 177,0	2 102 177,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		64 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	431 000,0	4 318 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar		
13	Davlat boji		
14	Yig‘imlar		
15	Jarimalar		
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	22 000,0	22 000,0
JAMI		**13 898 177,0**	**75 994 177,0**

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-38-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**75 994 177**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*11 387 595*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*421 309*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0*
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	Madaniyat bo‘limi	*4 597 283*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*1 443 000*
5	Sport bo‘limi	*6 790 866*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 798 000*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 094 458*
8	Suv yetkazib berish xizmati	*2 182 155*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 468 000*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
11	Hokimyat	*22 301 528*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*16 746 079*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*228 000*
	Zahira jamg‘armasi	*911 349*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 028 026*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*156 000*
	Axborot-kutubxona markazlari	*872 026*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	*19 903 266*

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-38-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yilda Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy byudjet nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Qorovulbozor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%

№	Mahalliy byudjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar								
1	Qorovulbozor tumani	0%	100%	100%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	100 %	100%	100 %	100 %	100 %	100 %

Izoh:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq Qorovulbozor tumani mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi;

2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq Qorovulbozor tumani mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) Qorovulbozor tumani mahalliy budjeti hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.